

Ona tili bu – millatning ruhidir

Risqitillayev Abdusamad

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti 3-bosqich talabasi

Islom Karimov “Yuksak ma'naviyat va yengilmas kuch”

1989-yil 21-oktabrda o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi, aynan til borasida qaytadan oyoqqa turish uchun eng muhim hodisalardan biri edi. Vaholanki, bu hodisa tilni hayotga qaytarish, uni tiklash uchun katta ko'mak va eslatma o'laroq tarixga muhirlandi. O'sha kundan beri ushbu bayram mamlakatimizda tantanali ravishda nishonlanib kelinmoqda. Har yili turli tadbirlar, loyhalar amalga oshiriladi.

Birinchi prezidentimiz Islom Karimovning *“Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch”* asarida til haqida juda chuqur mulohazalar mavjud. Jumladan, *“O'zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o'rtasidagi ruhiy ma'naviy bog'liqlik til orqali namoyon bo'ladi. Jamiki, ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili – bu millatning ruhidir.”*

Ona tiliga muhabbat uning so'zlaridan ma'nosini anglash, ularni to'g'ri qo'llash va uni chuqur o'rganishga harakat bilan ham namoyon bo'ladi. Yozuvchi shunday yozadi: *“Jamiyatimizning har bir a'zosi, har qanday mutaxassis, eng avvalo, o'zbek tilini mukammal bilmog'i kerak. Boshqacha qilib aytganda, O'zbekiston fuqorosi sanalgan har birimiz fikrimizni ona tilida aniq va ravon ifoda etish uchun nutqiy madaniyat, notiqlik san'atini egallash yo'lidan bormog'imiz lozim.”*

Yuqorida ona tiliga muhabbat uning so'zlaridan ma'nosini anglash, ularni to'g'ri qo'llash va uni chuqur o'rganishga harakat bilan ham namoyon bo'ladi degan fikr ilgari surildi. Xo'sh, buning tagida nima yotadi? Bunga qanday ershish mumkin? O'z-o'zidan ma'lumki, ilm olish, kitob bilan do'stlashish! Zotan, kitob nutqni va fikrlashgani ijobiy tomonga yaxshigina o'zgartila oladi. Buning uchun insonga xohish va ishtiyoq bo'lasa yetarli. Zero, xohish bo'lsa, insonga shijoat va ishonch begona bo'lmaydi. Binobarin, insonda xohish bor ekan, vaqt ham imkoniyat ham

topiladi. To'g'ri, bugungi kunda kitob oq'ish borasidagi gaplar, ko'pchilikni joniga ham tegib ketgan. Ammo u haqida, uning foydalari haqida yosh avlodga ma'lumot ulashish zarar qilmaydi.

Kitob o'qishning maksimal o'n besh foydasi:

1. Asabiylikka barham beradi

Asabiylashsangiz musiqa eshitib, ko'chada sayr qilasizmi? Buning o'rniga kitob o'qib ko'ring. Tadqiqotlarga qaraganda, 10 daqiqalik mutolaa asabiylikni ikki baravar kamaytirarkan.

2. Uyqusizlik qiynamaydi

Kitob o'qish tinchlanish va uyquga hozirlik yoki ko'rishning eng yaxshi usuli.

Telefon yoki televizorning yorqin nuri miyamizga uyg'onish uchun signal beradi. Tungi chiroq ostida kitob o'qish esa miyani dam olishga tayyorlaydi.

3. Ko'nglingiz yumshaydi

Mutolaa davomida asar qahramonlari kechinmalari bilan yasharkansiz, uning dardiga sherik bo'lasiz. Oqibatda real hayotda ham insonlarni yaxshiroq tushuna boshlaysiz

4. Miyani charxlaydi

Buni-ku endi yoshlikdan bilasiz. Eng zamonaviy kompyuter diagnostikasi uskunalari ham kitob o'qigach, bir necha kun mobaynida inson miyasidan nerv tolalari soni fiziologik darajada ko'payishini tasdiqlaydi.

5. Kurashishga o'rgatadi

Psixologiyaga oid kitoblarni o'qish tushukunlikdan chiqishga, maqsadlar sari kurashishga yordam beradi.

6. Chiroyingizni ochadi

Yuqori aqliy salohiyat atrofdagilarning e'tiboridan qolmaydi. Har qanday mavzuda suhbatlasha olishingiz sizni boshqalardan ko'ra maftunkor ko'rsatadi.

7. Maqsadlaringizni belgilashga ko'mak beradi.

Qahramonlarning erishgan yutuqlari sizni ilhomlantirishi aniq.

8. Ijtimoiy faol bo'lasiz

Kitob o'qiganlar madaniy va marifily tadbirlarda faolroq ishtirok etishini

statistik ma'lumotlar tasdiqlaydi.

9. Xatosiz yoza boshlaysiz

Kitob o'qiganlarning yozishmalari xatosizligi bilan ko'zni yayratishi sir emas.

10. Xorijiy tillarni o'rganishga yordam beradi.

11. Ijodiy salohiyatingiz o'sadi

Kitob o'qimay tuzukroq qo'shiq kuylagan, musiqa yozgan, rol ijro etgan, rejissyorlik qilgan kimni taniysiz? Xulosa chiqaravering.

12. Farzandlaringiz bilan munosabatlaringni yaxshilaydi.

Ota-onalar farzandlariga kitob o'qib berarkan, ularning o'rtasida shunday mustahkam rishtalar paydo bo'ladiki, buni birgalikda televizor ko'rish yoki boshqa ko'ngil ochar tadbirlarni tomosha qilish bilan solishtirib bo'lmaydi, deydi ruhshunoslar.

13. Boy bo'lasiz

Kitob o'qiganlar ichida boylarning ulushi o'qimaydiganlarga nisbatan bir necha karra ko'p.

14. Jinoyatning oldini oladi

Kitob o'qiganlar ichida jinoyatchilar kam. Qamoqxonalarda mutolaani boshlagan jinoyatchilar esa qayta qing'ir yo'lga qadam tashlamasliklari ham o'rganilgan.

15. Nutqingiz rivojlanadi.

Birozlarning hayoti haqida o'qikansiz, o'z fikringizni ham tiniq bayon etishga o'rganasiz. Keraksiz axborotlarni filtirlash, gapingizni birovlariga uqtirishingiz oson kechadi. So'z boyligingiz oshadi.”

Kitob haqida gap ketar ekan, aynan bugungi holatga qarab sevinib gapirib bo'lmaydi. Negaki, bugun yoshlarda kitobda bo'lgan muhabbat o'ta sust. Bir masjid imomi nikoh o'qirkan, kuyovdan oila haqida nechta kitob o'qigansiz deb so'rganida, u shu kungacha birona kitob o'qimaganini aytadi. Oilalarning buzulib ketishi, turli kelishmovchiliklar faqat to'ydagi kamchiliklar sabab bo'lmaydi, bu ilmga ham bog'liqdir. Ilmi yo'q insonda na madaniyat va na chiroyli nutq bo'ladi. Bugunga atrofdagi muhit, yoki kitobda qiziqтира olmagan ota-ona ustozlarni aybdor qilish

noo'rindir. Chunki hamma narsa insoning o'ziga bog'liq. Inson o'ziga o'zi savol berishi, aslida qanday qilsa to'g'ri ish bo'lishi haqida pinhona fikr yuritib ko'rishi lozim.

Kitob aslida qanday o'qilishi kerak? Qanday qilib unga muhabbat qo'yish mumkin? Bunday savollar tug'ilishi tabiiy. Inson dastlab, o'z ruhiyatiga mos kitob tanlamog'i kerak bo'ladi. Chunki ko'p insonlar nafaqat kitob, balki film va spektakillarda ham o'zini izlaydi, u yerda o'zini ko'rgisi keladi. Keyin imkon qadar birinchi,biroz kam sahifali kitob mutolaa qilishi darkor. Sababi, kichik muvofaqqiyat ham insonga yaxshigina ruhiy kuch taqdim etib, katta zafarlar tomon yetaklay oladi. Har kuni o'n betdan kitob o'qigan odam bir kun o'qishdan to'xtab qolsa, o'sha kuni xuddi nimadir yetishmayotgandek, nimadir kamdek tuyiladi. Qarabsizki, imkon qadar ana shu yetishmayotgan narsani to'ldirishga intiladi. Umuman olganda nimanidir o'rganishni istagan inson kitobga nisbatan mehri bo'la oladi.

Til haqida nutq haqida hamda kitob borasida ham ko'plab fikr mulohazalar bor. Bugun imkon qadar ular haqida qisqa va aniqroq yozishga urinildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Islom Karimov "Yuksak ma'naviyat va yengilmas kuch"

Norqul Bekmirzayev "Notiq nutq xulq"

"Ruhahunos.uz" sayti.